
Ustyurt platosining Sharqiy chinki va Orol dengizining qurigan tubida dala tadqiqotlari o’tkazildi

O‘zR FA Botanika instituti Geobotanika laboratoriyasi “Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘simliklar qoplami va yaylov resurslarining zamonaviy holatini baholash” mavzusidagi dasturi va shu bilan bir vaqtda, O‘zbekiston botaniklari jamiyati tomonidan bajarilayotgan “Orol dengizining qurigan tubi o‘simlik qoplamini chuqur tadqiq etish asosida hudud florasining zamonaviy ro‘yxatini shakllantirish, raqamli ma’lumotlar bazasi va genofond kolleksiyalarini yaratish” loyihasida belgilab qo‘yilgan rejadagi tadqiqotlarni amalga oshirish uchun Qoraqalpog‘iston Ustyurtining sharqiy chinki va Orol dengizining qurigan tubi hududlariga hamkorlikdagi qo‘shma dala safarini amalga oshirdi.








Dala tadqiqotlari davomida Sharqiy chinkning kalit hududlarda 51 ta, Orol dengizining qurigan tubi hududlarida 26 ta geobotanik qaydnomalar to‘ldirildi. Tadqiqot hududining floristik va fitosenotik xilma-xilligi o‘rganildi, yaylov xillarining kuzgi yer usti hosildorligi aniqlandi. Sharqiy chinkdagi yaylov xillarining joylashgan joyi, suv bilan ta'minlangani, tuproq qatlami xususiyati, loyiha bo‘yicha qoplanish darajalari, o‘simliklarning landshaft turlari, ularning joylashuvi, zichligi, zaharli va begona o‘simliklarning mavjudligi, ozuqa massasining hosildorligi, yaylovlarning payhonlanish darajasi kabi ma’lumotlar asosida birlamchi dala-kadastr ma’lumotlari to‘plandi.





“Mo‘ynoq” tajriba uchastkasidagi maydonga kolleksiya qilish uchun Fritillaria karelini turidan piyozi va

urug‘i, Astragalus amarus urug‘lari yig‘ilib tajriba maydoniga ekildi. Lazereva, Konstantin, Vojrojdeniya orollaridagi o‘simliklar qoplami bo‘yicha ma’lumotlar to‘plandi, noyob o‘simlik jamoalar aniqlandi, geobotanik qaydnomalar to‘ldirildi. Orol dengizi qurigan tubini to‘r tizimli xaritalash uchun gerbariy materiallari yig‘ildi.



